

PALIOGRAFIYA. QADIMGI YOZUVLAR VA O‘RTA OSIYODAGI QADIMGI YOZUVLAR PAYDO BO‘LISH TARIXI.

Choriyeva Muxlisa Karim qizi.

muxlisachorieva6@gmail.com

Tel: +998 953398005.

Zaripova Ziyoda O‘razali qizi.

zaripovaziyoda90@gmail.com

Tel: 998 970692919.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari.

Anatatsiya: Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki paliografiyaning vujudga kelishi, fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixi haqida manbalar asosida obektev yondashgan holda qisqacha ma’lumot berishdan iborat. Paliografiya fani tarix fanining yordamchi tarix fanlari sirasiga kiradi. Tarixiy filologik xarakterga ega bu fan sohasi kishilik taraqqiyoti davomida vujudga kelgan turli yozuvlar tarixi va mazmunini o‘rganadigan fan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Paliografiya, diplomatika, braxmi, kxaroshti, gupta, mixxat, eyroglif, turkiy yozuvlar, piktografiya, ideografiya, oromiy, sug‘d, manixey, bambuk.

Аннотация: Содержание данной статьи заключается в предоставлении кратких сведений об истории палеографии, становлении и развитии как науки, на основе источников, с объективным подходом. Наука палеография является одной из вспомогательных исторических наук истории. Эта область науки, имеющая историко-филологический характер, представляет собой науку, изучающую историю и содержание различных произведений, созданных в процессе развития человека.

Ключевые слова: Палеография, дипломатическая, брахми, харошти, гупта, клинопись, евроглиф, тюркская письменность, пиктография, идеография, арамейская, сугдийская, манихейская, бамбуковая.

Anatasia: The content of this article is to provide brief information about the history of paleography, formation and development as a science, based on the sources, with an objective approach. The science of paleography is one of the auxiliary history sciences of history. This field of science, which has a historical-philological character, is a science that studies the history and content of various writings created during the development of a person.

Keywords: Paleography, diplomatic, Brahmi, Kharoshti, Gupta, cuneiform, Euroglyph, Turkic writing, pictography, ideography, Aramaic, Sugdian, Manichean, bamboo.

Kirish: „Paliografiya " atamasi yunoncha ikki soʻz birikmasidan tarkib topgan boʻlib, palios - qadimgi, grapho yozaman degan maʼnolarni ifodalaydi. Yaʼni paliografiya qadimgi va umuman oʻtmishga oid yozma yodgorliklarni oʻrganadigan fan sohasidir. Paliografiya mustaqil tarix fani sifatida diplomatika(qadimgi hujjatlarni oʻrganadigan fan sohasi)dan ajrab paliografiya tarixchilarga yozma yodgorliklar ustida ishlashda yordam berish uchun moʻljallangan. Turli davrlarga oid qoʻlyozma asarlarni yaxshi bilish ulardan tarixiy manba sifatida foydalanishning asosiy shartidir. Paliografiya alohida fan sifatida XVIII asrning birinchi yarmida Yevropada dastlab Fransiyada vujudga kelgan va rivojlana boshladi. Boshqa mamlakatlarda esa paliografiyadan turli yozuvlarni oʻqish va oʻrganish, hujjatlarni aniqlashda foydalaniladigan. XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida paliografiya nafaqat Yevropa balki Osiyo va Amerika mamlakatlarida ham rivojlana boshlagan.

Paliografiya taraqqiyoti yer yuzida yozuvlar qachon vujudga kelganini aniqlash imkonini berdi. Birinchi maxsus paliografik asar Rasiyada XIX asr boshlarida paydo boʻlgan. Bu A. N Oleninning graf A. I Musin- Pushkinga yozgan XI asrga oid xati hisoblanadi. 1806- yilda Taman yarimorolidan topilgan Tmutarkan toshida A. N Olenin ushbu yozuvning paliografik tahlilini oʻtkazdi va rus paliografiyasini yaratish zarurligi haqida fikr bildirgan. Rossiyada Gʻarbiy Yevropada boʻlgani kabi, hujjatlarni tekshirishning amaliy usullari mavjud edi. Bunday amaliy koʻnikmalar 1723-yilda Andriy Denisov tomonidan tuzilgan mashhur „Pomeriana javoblari"da oʻz aksini topgan[2].

Paliografik tadqiqotlar bugungi kunda nafaqat qadimiy yozma manbalar doirasida balki maʼlum amaliy maqsadlarda soʻngi davrlar, hatto hozirgi zamon yozuv materiallarini tekshirishgacha amal qiladi. Olimlar yozuvni bundan 5-6ming yil avval Misr, Mesopotamiya, Xett, Hindiston va Xitoyda kashf etilgan deb hisoblanadi. Eng qadimgi yozuvlardan biri Shumerda miloddan avvalgi IV ming yillikda vujudga kelgan mixxat yozuvlari hisoblanadi. Bu yozuvlar suratli yozuvlar boʻlib inson aytmochi boʻlgan fikrlarini rasm orqali ifoda etganlar. Lekin suratli soʻzlar bilan koʻp narsani ifoda etib boʻlmagan va bu yozuv soddalashtirilib ponasimon mixxat yozuvi kashf etilgan. Bu mixxat yozuvi 600 belgidan iborat boʻlgan. Bu yozuv miladdan avvalgi III ming yillikda Shumerda vujudga kelgan. Mesopotamiyaning Ashur, Bobil, Ur shaharlarida kutubxonalar mavjud boʻlgan. Mixxat yozuvi Old Osiyoga kiyinchalik Yevropa hududlariga tarqalgan. Misrda bundan VI -VII ming yil avval 750 belgidan iborat - rasmiy yozuv yozuvi vujudga kelgan. Qadimgi podsholik davrida 24 ta tovushni bildirgan alifbo paydo boʻlgan. Misrliklar yozuvi oʻngdan chapga Shumerliklar yozuvi esa chapdan oʻngga qarab yozilgan. Qadimgi Hindistonda esa eramizdan avvalgi 3-2-ming yillikda 700 belgidan iborat yozuv boʻlgan. Taxminlarga koʻra bu yozuvlar shumer va Misr yozuvlari negizida vujudga kelgan ekan. Miloddan avvalgi V asrda qadimgi Hindiston hududida braxmi, kxaroshti, gupta yozuvlaridan

foydalanilgan. Xitoy yozuvi bundan IV -ming yil avval kashf etilgan Xitoy eyrogliflari Shan-In davrida vujudga kelgan bo'lib asosan 2000ga yaqin yozuv turlaridan iborat bo'lgan. Xan davriga kelib 18mingtaga yetgan. Dastlab Xitoy yozuvlari suyak, yog'och, cho'p, teri va bambukga yozilgan. Krit va Mekinda miloddan avvalgi III- II ming yillikda chiziqli yozuvlar mavjud bo'lgan. Bu yozuv 1953- yilda ingliz olimi Ventris va Chadvik „B" chiziqli krit yozuvini o'qishga muvaffaq bo'ldilar[1]. Etrusk, osk, lotin yozuvlari miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda yaratilgan. Bilamizki ko'pchilik qadimgi davlatlarda dastlabki yozuvlar rasmi yozuvlar hisoblangan. Rasmi yozuvlar - piktografik yozuvlar hisoblanadi. Piktografik yozuv Neolit davrida (eramizdan avvalgi 8-5 ming yilliklar orasida to'liq shakllangan. Rasmi yozuvlarning xususiyati shundan iboratki, fikrni ayrim tushunchalarga ajratib emas balki to'liq ifodalaydi. Jummalarni ayrim tushunchalarga so'ngra so'zlarga bolinishi - ideografiya, hozirgi yozuvga olib kelgan. Ideografiya quldorlik davridan boshlab, Shumer, Misr, Krit oroli, Xitoy va Mesopotamiyada rivojlangan. [3]

O'rta Osiyo xalqlari yozuvi tarixini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarga kelib turli kichik davlatlar tashkil topa boshlagan. Sinfy jamiyatning vujudga kelishi xalqlarning hayotiga ham o'ziga xos ta'sir o'tkazgan. Shahar va qishloqlar, shuningdek hunarmandchilik va san'at ham rivojlangan. Qadimgi Xorazm va sug'd yozuvining vujudga kelishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Bu yozuvlar eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda Kichik Osiyoda paydo bo'lgan oromiy va eramizdan avvalgi III asrda vujudga kelgan kxorashxi yozuvi asosida vujudga kelgan. Mutaxassislarning fikricha oromiy yozuvi Yaqin va O'rta sharq xalqlari orasida keng tarqalgan, iqtisodiy va madaniy aloqalarda asosiy vosita rolini bajargan. Kxorashxi yozuvi esa shimoliy-g'arbiy Hindistonda vujudga kelgan, shakli va mazmuni jihatidan oromiy yozuviga yaqin hisoblanadi. Qadimgi sug'd yozuvining paydo bo'lish tarixini o'rganish XIX asrning 90- yillariga to'g'ri keladi. Sug'd yozuvi somiy alifbosi singari konsonant ya'ni, harflar asosan undosh tovushlarni ifoda etgan. Dastlab 22-23harfdan iborat bolgan. Kiyinchalik IV asrdan boshlab harflarning chiqib ketishi va bazi yozuvlarning shaklan bir-biriga yaqinlashishi, o'xshab qolishi natijasida harflar soni 17 tani tashkil etgan. Sug'd alifbosining milodiy I asrga oid namunasi Samarqand yaqinidagi Tali Barzu degan joydan topib o'rganilgan. Yodgorlikni ko'pi XX asrda Sharqiy Turkistondan ham topilgan. Sug'd yozuvi asosida qadimgi uyg'ur yozuvi paydo bo'lgan va rivojlangan. O'rta Osiyo hududida yashagan aholi Xorazm, sug'd, uyg'ur yozuvidan tashqari manixey yozuvidan ham xabardor bo'lishgan. Manixey yozuvi Eron xududidagi xalqlar tomonidan yaratilgan bo'lib, eramizdan avvalgi IV asrlardan Sharqiy Turkistondan Misrgacha bo'lgan hududlarga tarqalgan[4].

Xulosa: xulosa qilib aytganda paliografiya fani qadimgi davrda yozilgan yozuvlar hamda bu yozuvlarning yozilish shakllari, turlari va tarqalgan hududlari

haqida ko‘plab ma'lumotlar olishimizga yordam beradi. Shu o‘rinda yozuvlarning o‘zi esa qadimgi tariximizni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Biz bu yozuvlarni (hujjatlar, bitiklar va b) o‘rganar ekanmiz juda ko‘p ma'lumotlarni, shu o‘rinda madaniyati, savdo va diplomatik aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ham qiziqarli ma'lumotlarga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.М. Is'hoqov. I Xudoynazarov. „Yordamchi tarix fanlari" (13, 14 -betlar).
- 2.С.В Белецкий. „ Спецеальные исторической дисциплины" (10, 12- betlar).
- 3.Саидбобоев.З. Чориев. Ш. „Махсус тарих фанлари асослари" (6-8- betlar).
4. Палиография.дос. (5-9-betlar).